



INNOVATIVE  
WORLD

ISSN: 3030-3079

# ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

SHARQ AKADEMIK VA KO'P TARMOQLI  
TADQIQOTLAR JURNALI

Scientific Journal



[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)  
+998 33 5668868



# ORIENTAL JOURNAL OF ACADEMIC AND MULTIDISCIPLINARY RESEARCH

Volume 3, Issue 3  
2025

Journal has been listed in different indexings

Google Scholar



ResearchGate

zenodo



ADVANCED SCIENCE INDEX



Directory of Research Journals Indexing

The official website of the journal:

[www.innoworld.net](http://www.innoworld.net)

Andijon-2025



## ONA TILI VA ADABIYOT DARSLARIDA O'QUVCHILARNING MANTIQUIY FIKRLASHINI TAKOMILLASHTIRISH

**Urmonova Dilfuza Mamasalievna**

M. Yusuf nomidagi ijod maktabi o'qituvchisi, PhD

ORCID NO: 0000-0001-7356-1560

[urmonova.dilfuza@mail.ru](mailto:urmonova.dilfuza@mail.ru)

**Annotasiya:** Mantiqiy fikrlash tafakkurning eng oliy bosqichidir. Mashhur pedagog K.D.Ushinskiy, aqlli so'zning ildizi mantiqiy tafakkurda ekan, barcha fanlarni o'rganish ibtidosi mantiq va mantiqiy fikrlashdan boshlanishi kerakligi, umumiy ta'lim - ya'ni maktabning eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish ekanligini ta'kidlagani bejiz emas. Maqolada o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirishning metodologik asoslari, ona tili va adabiyot darslarida ta'lim oluvchining mantiqiy tafakkurini takomillashtiruvchi turli topshiriqlar bilan ishlashga doir metodik tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** mustaqil ijodiy izlanish, kreativ, tanqidiy, analitik va mantiqiy fikrlash, fikrlash turlari, lingvistik kompetensiya, sharadalar.

### KIRISH( ВВЕДЕНИЕ/INTRODUCTION)

Bugungi kunda ta'limning asosiy vazifasi jahon standartlari darajasida mustaqil fikrlovchi, intellekt darajasi yuqori bo'lgan yoshlarni tarbiyalashdir. Shuning uchun ham har bir ona tili o'qituvchisi o'quvchilarning intellektual rivojlanishiga ta'sir ko'rsata olishi, buning uchun dars jarayonini eng zamonaviy pedtexnologiyalar asosida, interfaol usullar yordamida tashkil etishi kerak.

Har bir dars mashg'ulotlari ta'lim oluvchilarning aqli va tafakkurini o'stirishga, turli muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishga, mustaqil ijodiy izlanishiga, kreativ, tanqidiy, analitik va mantiqiy fikrlashini rivojlantirishga qaratilmog'i zamon talabidir.

Tadqiqotlarimiz natijasida shuni aniqladikki, shaxsning o'zlikni anglash tuyg'usi, uning mantiqiy fikrlash jarayoni bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ham mashhur pedagoglarimiz tomonidan yaratilgan tarixiy - madaniy yondashuvlar, konsepsiyalar ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-pedagogik modellarda shaxsda o'zlikni anglash tuyg'usini shakllantirish orqali qolgan barcha ma'naviy - axloqiy, intellektual sifatlarni rivojlantirish mumkinligiga alohida ahamiyat qaratilgan. Bunday sifatlarning va xulq-atvor me'yorlari sirasiga birinchi navbatda, milliy g'urur, fuqarolik, xalqparvarlik, millatparvarlik, tolerantlik, fidoiylilik, jomardlik, ilmsevarlik kabilarni kiritish mumkin

### ADABIYOTLAR TAHLILI (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ/ METHODS)

"Mantiq ilmi barcha ilmlarning muqaddimasi va har qanday ilmni egallashning zarur sharti" ekanligini ta'kidlagan Ibn Sino "Kitob ash - shifo", "Kitob an- najot", "Donishnoma" kabi asarlarida ham mantiq ilmi va mantiqiy fikrlashga doir fikrlarini bayon etgan. "Mantiq bilingan bilimlar yordamida bilinmaganlarni qanday qilib aniqlashni ko'rsatadigan, haqiqat va haqiqatsifat bilim nima-yu yolg'on nima ekanligini hamda ular qanday turlarga ega ekanligini aniqlab beradigan ilmdir". Mantiq ilmida tafakkur 3 xil shaklda: tushuncha, hukm (mulohaza) va xulosa chiqarish shaklida mavjud bo'ladi. Muhokama yuritish ana shular va ularning o'zaro aloqalarga kirishishi natijasida vujudga keladigan boshqa mantiqiy tuzilmalarda amalga oshadi. Mantiqiy fikrlash bevosita fikrlash bilan bog'liq ekan, fikrlash jarayoni va uning turlari haqida mulohaza qilish maqsadga muvofiqdir. Mantiqiy fikrlash tafakkurning eng oliy bosqichidir. Shuning uchun atoqli rus mutafakkiri A.I.Gersen mantiqni o'rganishni jon kuydirib maslahat berdi. Mashhur rus pedagogi K.D.Ushinskiy, aqlli so'zning ildizi mantiqiy tafakkurda ekan, barcha fanlarni o'rganish ibtidosi mantiq va mantiqiy fikrlashdan boshlanishi kerakligi, umumiy ta'lim - ya'ni maktabning eng muhim vazifalaridan biri o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish ekanligini ta'kidlagan, olim K.A.Timiryazev ham "mantiqiy tafakkur qobiliyatini o'stirish har bir fuqaroning bevosita vazifasi", deb yozganida haq edi.

"O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" esa mantiqiy fikrlashga quyidagicha ta'rif berilgan: Mantiqiy fikrlash— inson tomonidan ko'rib, eshitib, bilib, his qilib va ang'lab turgan borliq, voqelik yoki taassurotlarning boshqalar uchun ham tushunarli tarzda tafakkur etilishini anglatuvchi tushunchadir. Mantiqiy fikr yuritish qobiliyati barcha sog'lom insonlarga xosdir. Insonning bilish faoliyati uchun mantiqiy fikrlash universal xarakterga ega. Tafakkur ko'p qirrali, murakkab, shu bilan birga, bir butunni tashkil etadigan aqliy jarayondir. Mantiq deganda insonlarning kundalik faoliyatida, munosabatlarida, tartibli, aniq, asosli, ya'ni mantiqiy o'ylay olishi tushuniladi. Mantiqlik —tafakkurning, yozma va og'zaki nutqda fikrlash qonunlariga amal qilish jarayonidir.

Dunyoning ko'plab ko'zga ko'ringan psixolog va pedagog olimlari, jumladan, A.L. Vigotskiy, A.R. Luriya, S.L. Rubinshteyn, B.G. Ananeva, A.V. Petrovskiy, O.K. Tixonov, J. Piage, A.N. Leontev, V.V. Davidov, Blonskiy, YA.A. Komenskiy, J. Dyui, V.A. Suxomilinskiy, K.D. Ushinskiy, P.Y. Galperin, V.V. Davidov, L.V. Zankov, N.N. Mixaylov, L.YU.Ogerchuk kabilar ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlashini takomillashtirish, mantiqiy fikrlashni rivojlantirish usullari, mantiqiy fikrlashning shaxs kamoloti va ta'limdagi o'rni haqida tadqiqot va izlanishlar olib bordilar. S.L. Rubinshteyn "Fikrlash va uning tadqiqot yo'llari" asarida bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qilish jarayonida mantiqiy fikrlash zaruriyatini ilmiy asoslab beradi. O'zbek olimlari E. G'oziev, I.A.Allayorov, M.T.Davletshin, R.Safarova, S.YAminovalar ilmiy tadqiqotlarida mavzuga oid ilmiy - nazariy qarashlarini bayon etganlar.

O'quvchilar tafakkurni o'stirish, mantiqiy fikrlashni takomillashtirish va uning metodologik usullari, mantiqiy tafakkurning ona tili o'qitishdagi e'tiborga molik jihatlari A.Nurmonov, A.G'ulomov, H.Ne'matov, M.Asqarova, H.Mahmudov, SH.Yusupova kabi olimlarning ilmiy- metodik asarlarida batafsil yoritilgan.

### **MUHOKAMA(ОБСУЖДЕНИЕ/DISCUSSION)**

O'rganishlarimizdan ma'lum bo'ldiki, tafakkur olingan ma'lumotlarni inson psixikasi tomonidan qayta ishlash, atrofdagi olam ob'ektlari hodisalari o'rtasidagi sabab-oqibat munosabatlarini o'rnatish hisoblanadi. Mantiq esa aql shakllari, tafakkur usullari va qonunlari haqidagi fandir. Uning o'ziga xosligi shundaki, bilimga hissiy tajriba orqali emas, balki ilgari olingan ma'lumotlarni xulosalash, tahlil qilish natijasida erishiladi. Demak, mantiqiy fikrlash – mantiqiy konstruksiyalar va tushunchalar, dalillar, xulosalarga tayangan jarayondir.

Mantiqiy qonunlar dunyoni tajriba orqali empirik bilishga asoslanadi. Ya'ni inson muayyaan vaziyatni yaratish yoki unda ishtirok etish va keyinchalik uning o'ziga xos oqibatlaridan xabardor bo'lish asosida xulosa chiqaradi.

Sohaga oid adabiyotlarda mantiqiy fikrlash turlari quyidagicha tavsiflanadi:

1. Tasviriy-mantiqiy - vaziyat vizual tarzda taqdim etiladi. U bilan vaziyat go'yo tasavvur bilan o'ynaladi. Ishtirok etilayotgan ob'ekt tasvirlari yoki hodisalar xususiyati eslanadi.
2. Abstrakt (mavhum) mantiqiy – mavhumlikdan foydalaniladi. Murakkab toifalar haqiqatda mavjud bo'lmagan abstraksiyalar ishlatiladi. Ular orqali fikr yuritiladi.
3. Og'zaki-mantiqiy - mantiqiy fikrlash jarayonini mohirona qo'llash va notiqlik-til vositalaridan unumli foydalana olish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Mantiqiy mulohazalar boshqalar bilan baham ko'riladi. Og'zaki-mantiqiy fikrlashda tahlil qilish qobiliyati va malakali nutq muhimdir.

Ma'lumki, ona tili va adabiyotdarslarida yangi mavzu yoki yangi ma'lumotlar berilmaydi, balki o'quvchilarning ijodiy qobiliyatlarini o'stirish turli ,jumladan, nutqiy, kommunikativ va lingvistik kompetensiyalarini takomillashtirish, savodxonligini oshirish, mustaqil fikrlashini o'stirishga yo'naltiriladi. Demak, bunday tur (tip)dagi darslar o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirishga doir turli tuman topshiriqlar bilan ishlash uchun qulaydir.

### **NATIJALAR/ РЕЗУЛЬТАТЫ/RESULTS**

5-sinf ona tili darsligi“ 36-dars. Mustahkamlash”mashg'ulotida o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirish uchun quyidagi topshiriqlardan foydalanish mumkin.

**1-topshiriq.** Hurmatli o'quvchilar sizning e'tiboringizga sirli sandiqchani havola etaman. (qutichani o'qituvchi o'zi yoki o'quvchilar bilan birga yasashi mumkin). Sandiqchani tilsimini ochsangiz, inson uchun eng qimmatli tushunchalardan birini bilib olasiz.

Tilsim quyidagicha: U+1,1,R-1,19. ( lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosi asosida) Tilsim sinf taxtasiga yozilishi yoki ekranda ko'rsatilishi mumkin. Tilsimni yechish uchun bir daqiqa vaqt beriladi. Xo'sh, bu qaysi so'z ekan ?

1. Baxt. 2. Sog'lik 3. Do'st 4. Vaqt

Tilsim javobi: Vaqt (Vaqt) so'zi

Javobni to'g'ri topgan o'quvchidan tilsimni yechish uchun qanday yo'l tutgani so'raladi.

O'quvchining javobi: Tilsimni yechish uchun ushbu harflarning alfavitdagi o'rniga e'tibor berdim.  $U+1=V$ ,  $1=A$ ,  $R-1=Q$ ,  $19=T$ . Demak, vaqt so'zi hosil bo'ladi.

O'qituvchi: Barakalla! Keling, har birimiz inson uchun eng qimmatli tushunchalarni ifodalovchi so'zlar tilsim shaklida yozamiz. Bunda harflarning alfavitdagi o'rnidan foydalanamiz. + belgisi keyingi harfni, - belgisi esa oldingi harfni ifodalashini unutmang.

**Usulning afzalligi:** O'quvchilar alfavitni yod oladilar, harflar o'rnini eslab qoladilar, tez va mantiqiy fikrlaydilar. Nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llaydilar. Yuqorida ta'kidlanganidek, javobni to'g'ri topgan o'quvchidan tilsimni yechish uchun qanday yo'l tutgani, ya'ni fikrini asoslab berish so'raldi. "O'quvchilarda onglik, deb yozadi professor Shohidaxon Yusupova o'zining "Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning falsafiy asoslari" monografiyasida, - zehnilik, topqirlik, izlanuvchanlik, ishonchlik kabilar bo'lishi uchun fikrini asoslab berishni o'rganishi lozim. Ta'lim oluvchi fikrini asoslash uchun to'g'ri dalil keltira olsa-yu, ammo shu g'oyalarini o'zgalarga etkazib bera olmasa, unda so'zlash, gapirishdan noto'g'ri foydalangan bo'ladi. Demak, ularni darslikdagi bor narsani so'zlashga emas, balki asoslangan fikrni qayta ishlab, bayon qilishga o'rgatish ham fikrning chuqur va keng bo'lishini ta'minlashda muhim metod, yo'l bo'lib hisoblanadi. Bunda tadbqiq etish, taqqoslay olish, umumlashtirish hodisasini aniqlash - intilish va ijodkorlikka olib keladi". Yuqoridagi topshiriqni bajarish asnosida o'qituvchi o'quvchilardan vaqt va uning qadriga etish haqidagi hikmatli so'zlar yoki xalq maqollaridan namunalar keltirishni so'rashi mumkin. Bu o'quvchilarning og'zaki nutqini o'stiradi-nutqiy kompetensiya rivojlantiriladi.

Ta'lim rivojlangan xorijiy mamlakatlarda o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini o'stirishga alohida ahamiyat beriladi. Mantiqiy fikrlashni o'rganish uzoq davom etadigan jarayondir. Shuning uchun barcha fanlarni o'qitishda ta'lim oluvchilarning bu xususiyatini rivojlanishiga e'tibor qaratmoq kerak. Xususan, ona tili va adabiyotdarslari ta'lim oluvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini tizimli tarzda rivojlantirishga xizmat qiladigan intellektual xarakterdagi topshiriqlar bilan boyitilish alohida pedagogik ahamiyat kasb etadi.

### XULOSA(ЗАКЛЮЧЕНИЕ/CONCLUSION)

Mutaxassislarning fikricha, mantiqiy fikrlashni yaxshilash uchun xotira va e'tiborni turli mashqlar yordamida doimiy rivojlantirish kerak:

1. Krossvordlar va boshqotirmalar yechish,
2. So'zlarni teskari, matnlarni oxiridan boshiga qarab o'qish,
3. So'z boyligini kengaytirish - lug'atlar bilan ishlash,
8. Anagrammalarni yechish- aralashtirilgan harflardan so'z yasash va boshqalar.

Ona tili va adabiyot darslarida mantiqiy tafakkurni rivojlantiruvchi ana shunday topshiriqlarni qo'llash o'quvchilarning turli, jumladan, kommunikativ, nutqiy va lingvistik kompetensiyalarini takomillashtiradi, og'zaki va yozma savodxonligini oshiradi. Mantiqiy fikrlash:

1. Muammoli vaziyatlarning optimal yechimini topish;
2. Har doim raqobatchilardan bir necha qadam oldinda bo'lish, ularning harakatlarini oldindan hisoblash;
3. Maqsadga erishish uchun to'g'ri yo'lni tanla sh;
4. O'z fikrlarini hamma uchun tushunarli shaklda ifoda etish;
5. Raqiblarni o'z tarafiga moyil qilish uchun dalillarni topish va qo'llash;
6. Kasbiy va hayotiy xatolarning oldini olish kabi hayotiy vaziyatlarda qo'l keladi.

Mantiqiy fikrlash intellektual salohiyaning yuqori darajada rivojlanishiga olib keladi. Yuqori intellektual salohiyat esa maktab bitiruvchisiga muvaffaqiyatlar eshigini ochadi.

#### **ADABIYOTLAR RO'YXATI (ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА /REFERENCES)**

1. Musaev J.P. O'quvchilarning mustaqil fikrlash kompetensiyasini rivojlantirish strategiyalari. -T.: 2022, 248 b
2. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti. T.: 2004
3. Choriev A. Inson falsafasi. Toshkent: "Chinos EHK" 2002.
4. Nishonova S. Komil inson tarbiyasi. - T.: Istiqlool, 2003. - 224 b.
5. Mahmudov N. va boshqalar. Umumiy o'rta maktablarning 5-sinfi uchun darslik. G'G'ulom nashriyoti. T.: 2020
6. Nishonova S. Sharq uyg'onish davri pedagogik fikr taraqqiyotida barkamol inson tarbiyasi. Ped.fan.dokt. diss. - T.: 1998, - 288 b.
7. Pedagogika: ensiklopediyasi. II jild/ tuzuvchilar: jamoa. - T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2016. - 480 b.
8. Safarova R.G.. O'quvchilarning mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishning tarixiy pedagogik manbalari va omillari <https://doi.org/10.5281/zenodo.7077041>
9. Rahimov I. Mantiq. -T.: «Universitet», 1994.
10. Yusupova Sh. Hozirgi o'zbek adabiy tili darslarida o'quvchilar tafakkurini o'stirishning falsafiy asoslari. "Fan" nashriyoti. T.: 2004
11. Xayrullaev M., Haqberdiev M. Mantiq. -T.: «O'qituvchi», 1993.
12. Komilov B. Mantiq. -Toshkent: Kafolat print company, 2019. -152 b.
13. Pedagogika / A. Q. Munavvarovning umumiy tahriri ostida. T.: O'qituvchi, 1996. —200 b.
14. Sharipov M., Fayzixojaeva D. Mantiq. -T.: G'G'ulom nomidagi nashriyot, 2004.
15. Usmonova E.Z. O'quvchilarda mustaqil tafakkurni qanday shakllantirish mumkin? Toshkent, 2000. "Pedagogika va psixologiya" ilmiy ommabop nashri